



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**BUXORO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2645,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 92,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 31,4 % ga , ishlab chiqaradigan sanoat – 7,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 5,4 % ga va suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 6,1 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati





Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 98,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	161,0	323,0	162,0
Shag'al, t.	-	-	-



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, ming so'm	15618148,0	16750500,0	1132352,0

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-fevral

FHI,% da



2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2430,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,0 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-fevral


94,1 %

2022-yil yanvar-fevral

93,0 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,8 % (1,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 40,2 % (48,8 %) va quyi texnologiyali – 58,9 % (49,6 %)ni tashkil etdi.

■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 30,2 % (2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 67,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 36,3 % (2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 119,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,0 % (2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 110,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,3 % (2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 118,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg‘isi




Avtomobil benzini



Mazut



O‘simlik yog‘i (tozalangan)



Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa



Yumshoq bug‘doy va spelta uni



Likyorlar

Aroq

Uzum vinosi

Paxta linti

Paxta chigiti

Paxta tolasi



2022- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 166,5 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,9 % ga o'sgan), 50,1 ming litr uzum vinosi (86,7 %), 874,0 ming litr aroq mahsulotlari (3,8 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Mazut, ming t.	18,5	13,6	-4,9
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	2537,5	1602,8	-934,7
Paxta tolasi, t.	28819,0	25786,0	-3033,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	14865,4	13674,5	-1190,9
Paxta chigiti, t.	45445,0	36238,0	-9207,0
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	7247,1	8025,8	778,7

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 94,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 0,7 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 7,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 89,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 118,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 112,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3% ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 451,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 84,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 36,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 19,5 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 960,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 95,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 %, fizik hajm indeksi 85,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 19,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 49,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 75,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 31,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 39,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 64,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 30,2 % ni, fizik hajm indeksi 67,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 798,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 160,3 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 73,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 92,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,4 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1,1	1,2	0,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	295,4	218,8	-76,6

Yanvar-fevral

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln. so'm</i>	3065,1	2531,1	-534,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln. so'm</i>	81,3	82,7	1,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 17,4 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,7 % ga oshganligi kuzatildi. .

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1236,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 46,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-fevral

33,6%

2022-yil
yanvar-fevral

31,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-fevral

66,4%

2022-yil
yanvar-fevral


69,0%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 9,0 % (2021- yil yanvar-fevral oylarida 2,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 34,6 % ni va Buxoro shahri 17,4 % ni, G'ijduvon tumani 13,4 % ni hamda Kogon tumani 6,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (110,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich G'ijduvon (134,5 %), Kogon (123,2 %) tumanlarda, Buxoro shahri (116,9 %), Jondor (116,5 %) hamda Peshku (112,2 %) tumanlarda qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 34,6 % shuningdek, Buxoro shahri 17,4 %, G'ijduvon 13,4 % ni, Kogon 6,2 % tumanlari tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 49,4 % shuningdek, G'ijduvon tumani 14,3 %, Buxoro shahri 14,3 % ni, Kogon tumani 5,7 % ni tashkil etdi.

497,1 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-fevral

669,5 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-fevral

853,3 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-fevral



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2020- yil

112,9 %

02


2021- yil

108,5 %

04

2022- yil

111,0 %






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 24,5 % ni, shuningdek, G'ijduvon tumani 11,7 % ni, Jondor tumani esa 9,6 % ni tashkil etdi.



Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, 31,3 % ni, shuningdek, Buxoro shahriga 13,9 % ni, G'ijduvon tumani esa 13,5 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2020- yil

2744,8 mlrd. so'm

2021- yil

2573,9 mlrd. so'm

2022- yil

2645,8 mlrd. so'm



2020- yil


106,0 %

2021- yil

84,1 %


2022- yil

92,6 %




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (44 156,3 ming so'm), Kogon shahrida (2 364,0 ming so'm) hamda Kogon tumani (1 549,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 348,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Buxoro viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 630,3 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 22 778,9 ming so'mni, Kogon tumanida – 955,6 ming so'mni, Kogon shahrida – 397,5 ming so'mni tashkil etdi.

Buxoro viloyati



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4884 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1282 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,2 % i) Buxoro shahriga, 610 tasi (12,5 % i) G'ijduvon tumaniga, 379 tasi (7,8 % i) Buxoro tumaniga, 379 tasi (7,8 % i) Kogon tumaniga, 352 tasi (7,2 % i) Romitan tumaniga, 352 tasi (7,2 % i) Jondor tumaniga, 297 tasi (6,1 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

